

HOZIRGI O‘ZBEK TILING DIALEKTAL ASOSLARI VA ADABIY TILDA DIALEKTAL SO‘ZLAR MUQOBILI.

Umaraliyeva Azizaxon O‘lmasali qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada shevalardagi so‘zlarning o‘zaro etnik jihatdan qanday munosabatga kirishishi va ularning morfemalari aholi orasida qo‘llashda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi haqida shunigdek, bu shevalarning badiiy adabiyotga ta’sir ko‘lami to‘g‘risida to‘xtab o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Dialekt, dialektologiya, shevashunoslik, fonemalar, etnolingvistika, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz.*

Dialekt, sheva deganda, avvalo, ko‘z oldimizga turli hududlarda istiqomat qiladigan, o‘ziga xos shevalarda gaplashadigan aholini tushunishimiz mumkin, albatta. O‘zbek tili bir qator shevalarni o‘z ichiga oladi, bunday shevalar etnolingvistik nuqtayi nazardan uchta katta lahjaga – yani qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga bo‘linadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarkibi topishiga ana shu uchta lahja shevalarning iahtiroq etganligi tabiiy bir holdir, lekin shunday istisno holati ham borki, ulardan qaysi biri adabiy tilga ko‘proq darajada asos bo‘lganligi masalasida tilshunoslar orasida aniq qilib ajratilmagan.

Shuni ham aytib o‘tish kerak, ko‘pchilik manbalarda hozirgi o‘zbek adabiy tilining tayanch dialekti sifatida qarluq lahjasi, xususan, xususan, uning Toshkent va Farg‘onada shahar shevalari ishtirok etganligi ko‘rsatiladi. Bu masalaga tilshunoslarning ayrimlari “O‘zbek tilimiz, faqat, qarluq lahjasidan emas balki, qipchoq shevasiga mansub faol qo‘llanishini, shunga ko‘ra adabiy til me‘yorlariga oid ayrim masalalar qayta ko‘rilishi kerak”, deb aytishgan. Jumladan, X.Donyorov va B.To‘ychiboyevlar shu masalada fikr bildirishadi. Dialektologiya so‘zining umumiy ma’nosi: tilda mavjud bo‘lgan lahjalar, shevalar o‘rganiladigan va ayni paytda tilshunoslikning sohalaridan biri hisoblanadi. Bu sohda lahja va shevalarning fonetik, morfologik,leksik va sintaktik xususiyatlari etnik joylashuviga ko‘ra o‘rganiladi.

Maqolaning asosiy mavzusi ko‘proq shevaga qaratilgan, chunki shevalar dialektga nisbatan kichikroq ma’noda qo‘llaniladi va dialekt tilning eng kichik bo‘lagi hisoblangan shevalarni bir qanchasini o‘z ichiga oladi, yani dialekt shevalar yig‘indisidan tashkil topadi. Bu nazaryani keltirishimning sababi shuki, men ayni paytda tilshunoslikka nisbatan tushuncha va ilmiy nazaryalarimga tayanib dialektologiyaning kichik qismi shevadan boshlashni afzal ko‘rdim.

Shevashunos so‘zi forscha “sheva- ovoz ,odat,til”, “shunos-bilish, o‘rganish” degan ma’noni anglatadi. Maqolada o‘zbek millatining aholi tilidagi so‘zlarni bir biriga qiyoslab, ularning mazmun-mohiyati solishtirilgan. Qashqadaryo, Surxondaryo va Surxondaryo hududiga mansub Qumqo‘rg‘on, Sherabod, Muzrabod, Denov aholisining lisonida ishlatiladigan so‘zlari haqida suhbatlashamiz.

Birgina qalam chiqargich soʻzini oladigan boʻlsak, Qashqadaryo va Sherabotda yashovchi aholi orasida boshqacha nomlar bilan ataladi. Bu soʻz qarshiliklarning lisonida “yoʻngʻich” boʻlsa, sherabotliklar esa “archgich” soʻzini ishlatishadi. Bu leksemalardan foydalanuvchi aholini soʻz qoʻllashda xatoga yoʻl qoʻyadi deya olmaymiz, qalamga nisbatan “chiqargich” bu soʻzning adabiy muqobili boʻla oladi.

“Archgich, yoʻngʻich” soʻzlari adabiy tilda boshqa ish-harakatga nisbatan ishlatiladi, jumladan, “archgich” koʻp hududlarda sabzavot, mevalarga nisbatan qoʻllaniladi. “Yoʻngʻich” esa biror bir yogʻochga ishlov beradigan predmetga nisbatan ishlatiladi.

Barchamizga maʼlum boʻlgan taomlardan biri bu-yallam. Bu ovqatga solinadigan masalliqlar va pishirish jarayoni bir xil boʻlishiga qaramasdan, ularning atash leksemalari turlicha nomlanadi. Qumqoʻrgʻon, Sherabot, Denov, Shoʻrchi, Boysun hududlarida shovla, guruch osh,jalama, shulla leksemalari ishlatiladi. Adabiy til meʼyorlariga tayanadigan boʻlsak, „yalama” leksemsini ishlatganimiz maqul.

Leksemalar haqida yana bir narsani ilova qilish kerak: leksemalar ham qoʻllanishiga koʻra tasniflanadi. Bunda leksema qoʻllanish miqdoriga koʻra farqlanadi. Koʻpgina leksemalar cheklanmagan, baʼzisi kam qoʻllanishiga ega. Shu jihatdan leksemalar ikki turga boʻlinadi.

- a) qoʻllanishi chegaralanmagan leksema;
- b) qoʻllanishi chegaralangan leksema.

Qoʻllanishi chegaralanmagan leksemalar – oʻzbek tili lugʻat tarkibining asosini ana shu qatlam tashkil etadi shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub boʻlishidan qatʼi nazar, cheklanmagan darajada ishlatiladi.

Qoʻllanishi chegaralanmagan leksemalar barcha turkumda mavjud:

Qoʻllanishi chegaralanmagan leksemalarni shu tilda soʻzlashuvchi kishi, qanday.

Feʼl: ishlamoq, kelmoq, olmoq;

Ot: ota, ona, non,suv, stol;

Sifat: shirin, achchiq, qizil, koʻk;

Ravish: hamisha, baʼzan, hozir, ataylab, shu yoʻsinda davom etadi.

Bunday tafovvutlar faqatgina leksemalar orasidagina emas, albatta. Bunday hodisani soʻzlarning fonemalarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan: Qashqadaryo aholisining aksariyat qishloq joylarda yashovchi aholisi qoʻllaydigan sizlarda y,b,i,r harflari nutqlarida tushib qoladi. Shevada gapirish hech qanday muammo keltirmaydi, ammo yozuvda ham ayrim paytlarda bunday fonetik hodisalarning buzilishini koʻrishimiz mumkin. Yozilishda xato qilish, albatta, bizning savodxonligimizga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Qoʻshimcha tarzda Sherabotda yashovchi aholi nutqini oladigan boʻlsak, fonetik jihatdan hech qanday kamchilikka yoʻl qoʻyishmaydi, ammo nutq jarayonida feʼlga aksariyat hollarda -gich qoʻshimchasini qoʻshib gapirishadi: borgich edim, kelgich edik va hokazo.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining grammatik qurilishida otning joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishiklaridagi shakllari Toshkent-Fargʻona guruh shevalariga asoslanadi: -ga, -da, -dan kabi. Boshqa shevalarda otning bu kelishiklaridagi shakllari quyidagicha boʻladi: Samarqand shevasida „-ga” joʻnalish va oʻrin-payt kelishiklari magʻnosini ifodalaydi.

Misol tariqasida, “Buxoroga ketopti” soʻzi -ga oʻtning joʻnalish kelishigidagi shakli. Buxoroga oʻqopti soʻzida -ga oʻrin-payt kelishigidagi shakli kabi boʻladi. Oʻgʻuz lahjasi shevalarida -ga oʻrnida - gʻa , -ye, -ne, - na, - e shakllari ishlatiladi.

Shuni ham aytish kerakki, koʻpchilik shevalarda tushum va qaratqich kelishiklari deyarli farqlanmaydi. Shuning uchun ham kelishiklar soni Toshkent, Fargʻona, Xiva, Urganch shevalarida – 5 ta, Qarshi shevasida 4 tadir. Shunga koʻra, hozirgi oʻzbek adabiy tilining 6 ta kelishikli tizimga asoslanishida ana shu lahjalarning morfologik xususiyati hisobga olingan.

Aslini olganda har bir shaxs oʻzga tegishli boʻlgan shevadan foydalanishi ayb emas, qachonki biz oʻz tilimizdagi leksemalardan foydalanmay har xil varvarizim va boshqa tildagi soʻzlardan foydalansak, bu biz uchun, ona tilimiz uchun, oʻzbek millati uchun fojeaga olib keladi. Hattoki aholi foydalanadigan shevalar ham tilshunosligimizda muhim rol oʻynaydi. Shevalar shunday bir narsaki, yozuvchilarning badiiy ijodlarida asar ruhini his qilishimiz uchun, undan taʼsirlanishimiz uchun ham bunsoʻzlarning oʻrni yuqori. A. Qodiriy shunday deydi, “Agar yozuvchining qayerda tugʻilib oʻsganini bilmoqchi boʻlsang, u yozgan asarlardagi soʻzlarga eʼtibor ber”- deb bejizga aytmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Baxtiyor Mengliyev „ Hozirgi oʻzbek adabiy tili” .Darslik . Toshkent: Tafakkur boʻstoni , 2018- yil .
2. Y. Hamrayeva ,G. Tojiyeva va I. Islomovlar „ Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Mashqlar toʻplami” .Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2005- yil.
3. H. Jamolxonov „ Hozirgi oʻzbek adabiy tili” .Darslik. Toshkent : Talqin, 2005- yil.
4. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qubonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova, Hozirgi oʻzbek adabiy tili. oʻquv qoʻllanma. – Toshkent. „Fan va texnologiya” , 2009- yil.
5. www.arxiv.uz